

MUSTAQIL TA'LIMNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbonov Shuhrat Zarifovich

Toshkent kimyo-texnologiya institute Shahrisabz filiali mustaqil izlanuvchisi

shuxratqurbonov544@gmail.com

Kalit so'zlar: dasturlash, texnologiya, platformalar, asinxron, ta'lim xizmatlari, sayt, chat, internet manbalari, o'quv adabiyotlari, telekonferensiya, telegramm, kompyuter, telefon.

Ключевые слова: программирование, технологии, платформы, асинхронный, образовательные услуги, веб-сайт, чат, интернет-ресурсы, учебная литература, телеконференция, телеграмм, компьютер, телефон.

Keywords: programming, technology, platforms, asynchronous, educational services, website, chat, internet resources, educational literature, teleconference, telegram, computer, telephone.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mustaqil ta'limning bir qator faqat o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirish hamda Mustaqil ta'limni hozirgi kundagi shakllanish bosqichlari haqida gap boradi.

Аннотация: В статье обобщен ряд специфических черт самостоятельного образования и рассмотрены этапы его становления на сегодняшний день.

Abstract: This article summarizes a number of specific features of independent education and discusses the stages of its formation to date.

Mustaqil ta'limning bir qator faqat o'ziga xos xususiyatlari borki, ularni uchta guruhga umumlashtirish mumkin. Bu guruhlar quyidagilardir: tuzilmaviy-tashkiliy, iqtisodiy va subyektlarning yangi vazifalari bilan bog'liq xususiyatlar.

Tuzilmaviy-tashkiliy xususiyatlar guruhiga quyidagilarni kiritamiz:

-Mustaqil ta'limning moslashuvchanligi: bunda ta'lim oluvchi ma'ruza va seminar ko'rinishidagi dars mashg'ulotlariga bevosita ishtirok etmaydi. Har bir ta'lim oluvchi o'z rejasini, vaqti va sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'qishi mumkin;

-Mustaqil ta'limning modulliligi: o'quv dasturi zahirida modullilik tamoyili yotadi. Bu alohida bir ta'lim oluvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejasini shakllantirishga zamin yaratadi;

-ta'lim va mehnat faoliyatining parallelligi: Mustaqil ta'limning mazkur xususiyati ta'lim oluvchiga o'z kasbiy faoliyatini tahsil olish bilan parallel, biri ikkinchisini to'ldirishini ta'minlagan holda olib borish imkonini beradi;

-geografik xususiyati: ta'lim oluvchining manzili va ta'lim muassasasi joylashgan hudud o'rtasidagi masofaning ta'lim jarayonlari samaradorligiga ta'sir etmasligi;

-Mustaqil ta'limning asinxronligi: mazkur xususiyat o'qitish texnologiyalarining qulay vaqtda va maqbul sur'atda joriy etish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

-pedagog va ta'lim oluvchiga ajratilgan rollar bilan bog'liq xususiyatlar: mazkur xususiyatga ko'ra, pedagog bilish jarayonlarini muvofiqlashtirib borish, o'rganilayotgan materiallar kursini tahrirlar, o'quv loyihalariga maslahatlar va yo'riqnomalar berish kabi vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi.

Pedagog va tinglovchining o'zaro munosabatlari asinxron tarzda, ya'ni har ikkala tomon uchun qulay sharoit va maqbul vaqtlarda elektron pochta yoki boshqa turdagi aloqalar tizimi orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda tinglovchi (ta'lim oluvchi) Mustaqil bilim olishning boshlang'ich darajasida bo'lib, zarur darajada o'z-o'zini tashkil etish va motivatsiyaga ega bo'lishi talab etiladi.

Mustaqil ta'lim hozirgi kunda shakllanish bosqichini boshdan kechirmoqda, shuning uchun asosiy e'tibor axborot texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilishi lozim deb hisoblaymiz. O'quv axborot dasturlari Mustaqil ta'limning samaradorligini ta'minlovchi eng muhim elementlardan biridir.

Mustaqil ta'lim platformasi tarmoqlarda ixtisoslashtirilgan o'quv materiallari ko'rsatuv shaklida kabelli aloqa vositasida tarqatiladi. O'rganilayotgan o'quv materialining asosiy hajmini saqlash va zarurat tug'ilganda uzatish uchun eng muhim vosita sifatida elektron darsliklar va kataloglarni keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda asinxron kommunikatsiyalarning eng ko'p tarqalgan turi global telekommunikatsion kompyuter tarmoqlaridir. Axborot texnologiyalarini uchta asosiy to'plamlarga ajratishimiz mumkin. Mazkur to'plamlar bir-biridan asosiy o'quv materiallarini, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari va nazorat mashg'ulotlarini tarqatish vositalariga ko'ra farq qiladi.

Ovozli pochta – asinxron ta'lim vositalaridan biri. Bunda ta'lim oluvchi bilimlarni telegramm kanali orqali oladi. Pedagog yuborilgan savolni tinglaydi, unga beradigan javobini kanalga yozadi va ta'lim oluvchiga yuboradi.

mustaqil ta'limning usul va vositalari quyidagi ko'rinishda shakllantiriladi:

- mavzuning mundarijaviy komponentlarini tanlab olish va shakllantirish;
- loyihani joriy etish, ya'ni tarqatishning texnologik sxema va uni amalga oshiruvchi tuzilmalarni shakllantirish;
- kompyuterda foydalanishga mo'ljallangan o'quv materialini tanlash kabi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi.

O'rganiladigan materialning mavzulari o'quv moduliga qo'yiladigan malaka talablaridan kelib chiqqan holda shakllantirildi. Kompyuterda dastur bilan ishlashga kirishishdan oldin tushuntirish matni bilan tanishib chiqiladi: tushuntirish matnida dasturdan foydalanish tartibi xususida yo'riqnomalar va tavsiyalar keltiriladi.

Butun o'quv dasturi davomida matn ichidan rangli sxemalar, grafiklar, rasmlar va tushuntiruvchi ko'chirmalar, iqtiboslar shaklidagi jadvallar o'rin olib turadi.

O'quv materialidagi mavzuga asosiy tushunchalar, qo'shimcha mashg'ulotlar rejasi va uning natijalari, laboratoriya ishlari ro'yxati, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va nazorat majmuasi alohida sahifa ko'rinishida beriladi. O'quv materialining bir qismidan ikkinchi qismiga o'tish kompyuter monitorining orqa planidagi fonning animatsiyalashtirilgan lavha ko'rinishidagi yozuv orqali amalga oshiriladi.

O'quv materiallarini shakllantirishdagi, ya'ni mundarijaviy majmuada tizimlilik tamoyili va ularning o'zaro ta'sirlashuvi haqidagi yaxlit tasavvurning asosini tashkil qiladi. Tashkiliy majmuaning negizini tashkil etuvchi tamoyil, o'quv materiallarini o'rganishda o'quv faoliyatini tashkil etish tamoyili ta'lim talabaning motivatsiyasi bilan mustahkamlanadi.

Mustaqil ta'lim olishda loyihaning texnologik sxemasi o'zida bir necha faoliyat turlarini mujassam etadi. Mustaqil ish ta'lim oluvchining o'quv materialini turli murakkablik darajasiga ega bo'lgan topshiriqlarni taqdim etish orqali o'rganish davomida kompyuterda ishlashini nazarda tutadi. Ishlab chiqilgan loyiha ta'limning kunduzgi, sirtqi va kechki shakllarida birdek qo'llanilishi mumkin.

Mustaqil ta'lim tizimining imkoniyatlarini to'liq ochib berish uchun tizim rivojlanishidagi tarqoqlik va nomuvofiqliklarga barham berish lozim. Buni faqat tizimga qo'yiladigan DTS talablari hamda o'quv kurslari va kadrlarga qo'yiladigan pedagogik-psixologik, metodik va texnik talablar bajarish orqali amalga oshirish mumkin.

Pedagogik amaliyotda mustaqil ta'limning paydo bo'lishi pedagogikaga qator yangi atamalarining kirib kelishiga zamin yaratdi. Xususan, virtual sinf, ta'limni qo'llab-quvvatlash, o'quv telekommunikatsion loyihalar, qaytar aloqa, dialogli texnologiya, kompyuter aloqasi, telekonferensiya va shu kabilar aynan mustaqil ta'lim texnologiyasida qo'llanila boshlandi.

O'quv telekommunikatsion loyiha – mustaqil ta'limning o'zgargan istiqbolli shaklidir. Bunda ta'lim oluvchilar oldiga muayyan bir yo'nalishda loyihani modellashtirish vazifasi qo'yiladi. Mazkur loyihaning muayyan o'ziga xosliklari mavjud. Masalan, vaqt jihatdan belgilanganligi va ta'lim oluvchilar faoliyatining loyiha rahbari tomonidan qat'iy tartib asosida tashkil etilganligi.

Mustaqil ta'limda qaytar aloqa pedagogning ta'lim oluvchi faoliyatini, uning yutuq va kamchiliklarini baholashida namoyon bo'ladi. Rejali ravishda tashkil etilgan qaytar aloqa ta'lim oluvchining faoliyatida ijobiy motivatsion muhit shakllanishini ta'minlashi isbotlangan.

Auditoriyadagi ta'limda qaytar aloqa ongosti darajasida amalga oshiriladi. Mustaqil ta'limda esa qaytar aloqa rejalashtiriladigan element hisoblanadi. Dialogli texnologiya

pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi erkin aloqani dasturiy ta'minotning konfiguratsiyasi ko'rinishida ta'minlaydi.

Telekonferensiya – matnli xabarlar bilan almashinuv usulidir. Hozirgi vaqtda elektron pochta keng qo'llanilmoqda. Elektron pochta yangi metodik usullardan biri bo'lib, uning muhim jihati quyidagilardir: o'qishga qiziqishni oshiradi; tajriba almashinuvni osonlashtiradi; aloqa amaliyotini yaxshilaydi va kengaytiradi.

Mustaqil o'qitishda elektron pochtdan foydalanish telekommunikativ loyihalar ko'rinishida olib boriladi. Odatda, bunday loyihalar muayyan bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi va ta'lim oluvchilar faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi. Ko'plab Mustaqil ta'lim markazlari serverdan foydalanish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqda va u asosiy talablarda mavjud.

Mustaqil ta'lim platformasidan foydalanishning dastlabki bosqichlarida bir qadar qiyinchiliklar kuzatildi. Jumladan, axborot madaniyati va kompyuter savodxonligining etarli darajada emasligi; individual foydalanuvchilar uchun kompyuter parklarining etishmasligi; kompyuter telekommunikatsiya tarmoqlarining etarli emasligi va shu kabilar.

Ta'limning eskirgan texnologiyasi yangi model bilan almashtirilishi lozim deb hisoblaymiz va yangi model quyidagi qoidalar asosiga qurilishi nazarda tutiladi:

- texnologiyaning maqsad markazida ta'lim oluvchi turishi;
- ta'lim oluvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etishi ta'minlanishi;
- pedagog va ta'lim oluvchi munosabatlari o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilishi;
- ta'lim oluvchining mustaqil o'qishi va o'z-o'zini rivojlantirishi rag'batlantirilishi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan qoidalarni pedagoglarga ham tatbiq etish lozim, negaki, pedagog ishtirokisiz yangi texnologiyalar, xususan, axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim samara bermaydi. Yana bir e'tiborga molik holat shuki, ta'lim oluvchilar kompyuter va axborot texnologiyalarini tez sur'atlarda qiziqish bilan o'zlashtirib oldilar va pedagogning bayoniga nisbatan komyuterni afzal ko'rishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.R.Turdiyev STEAM fanlari ta'limini modellashtirish hamda raqamlashtirish orqali rivojlantirishning nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (Dsc) dis.- 2023. 2. 48-51 bet
2. Shadiev, R., Khimmataliev, D., Fayzullaev, R., & Chorshanbiev, Z. (2020). Professional culture of the future teacher of vocational education: a communicative aspect. Journal of Critical Reviews, 7(4), 399-400.
3. Sh.Z. Kurbanov (2023) STEAM EDUCATIONAL PROGRAMS IN IMPLEMENTATION OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN THE

MODULE CREDIT SYSTEM //American Journal of Technology and Applied Sciences
Volume 10, March, 2023, 7-10.

4. STEAM ЁНДАШУВИ АНИҚ ФАНЛАР ТАЪЛИМИНИНГ АМАЛИЙ
ҲАЁТДА ҚЎЛЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ТАЪЛИМ}, volume={2},
url={<https://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/71>}

5. Primov T.I., Qurbonov S.Z. Matematik modellarni tuzishda variatsion tamoillar.
“Academic Research in Educational Sciences”. 2021, Volume 2, Issue

